

INGLIZ TILINI O'RGANISHNING SAMARALI USULLARI

Ziyodullayeva Mukaramoy Zuhurjon qizi

Guliston davlat pedagogika institute "Xorijiy til va adabiyoti" fakulteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, malakali mutaxassislar, kategoriya, bilim, materiallar.

Ingliz tili haqida so'z yuritilar ekan bu til dunyo tili hisoblanishi barchamizga ma'lum. Mazkur til muloqot, biznes fan-adabiyot, siyosat va boshqa sohalarda yetakchi til va dunyo bo'ylab keng tarqalgan til hisoblanadi. Dunyo tan olgan yirik-yirik tashkilotlarning ham asosiy tili shu til hisoblanadi. Bugungi kunda bu tilni o'rganuvchilar soni taxminan 400 million odamni tashkil qiladi. Jahon standartlariga javob beradigan kadrlar tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shubhasiz, malakali kadrlar tayyorlash uchun ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo haqida tasavvurga ega bo'lish, dunyo mamlakatlarini tushunish uchun ham ingliz tili muhim hisoblanadi. Bu tilni samarali o'rganish usullari orqali maqsadga yetishish tez va oson bo'ladi. Bu o'rganuvchidan kundalik tajribalar, chuqur bilim va ko'nikmalar talab etadi. Ingliz tilini o'rganish

4 ta kategoriya asosida amalga oshiriladi: so'zlashish, o'qish, yozish va eshitib tushunish. So'zlashish ko'nikmasini o'rganishning samarali usullaridan biri bu har bir kuningiz qanday o'tganligini ingliz tilida hikoya qilib berishingizdir. Yangi so'zlarni yod olish va ular orqali sodda gaplar, qisqa matnlar tuzish orqali mustahkamlashdir. Qanchalik ko'p axborot olmaylik amalda shug'ullanilmasa, takrorlanmasa natija bermaydi. Ingliz tili materiallaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Material tanlash chet tilini bilish darajasidan kelib chiqib tanlanishi lozim. Materiallarga chet tilidagi kitoblar, qisqa hikoyalar, jurnallar, audiokitoblar, kino, ko'rsatuvlarni kiritishimiz mumkin. Lug'at boyligini oshirishda kundalik hayotingizda ko'rgan buyumingizni inglizchasini aytishingiz ham samarali. Til o'rganishga to'sqinlik qiluvchi omil omma oldida, auditoriyada ingliz tilida nutq so'zlashdan qo'rqish, o'ziga bo'lgan ishonchsizlikdir. Buni oldini olish uchun talaba ko'p tajriba qilishi va o'qituvchi tomonidan ruhlantirilishi kerak. Eshitib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning samarali usullaridan biri chet tilidagi suhbatlar, qisqa diologlarni tinglashdir. Tinglash jarayonida qaysi so'zlar notanish yoki qiyin bo'lsa, shu so'z ustida ishlash muhimdir. Shu bilan bir qatorda chet tilidagi kinolar, ko'rsatuvlarni ko'rish va bu orqali so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rganish mumkin. O'qish ko'nikmasini o'rganishning samarali usuli sodda yozilgan hikoyalarni muntazam o'qib borishdir va bu kundalik odatga aylantirilish zarur. Yozish ko'nikmasini o'rganishda sodda gaplar, qisqa matnlar tuzish yaxshi samara beradi. Til o'rganishda birinchi o'rinda tilning grammatikasini yaxshi bilish shart. Grammatikani o'rganishda aniq adabiyot tanlanishi lozim. Albatta grammatikani oz vaqtda o'rganish qiyin masala bo'lib bu

o'qituvchining mahoratiga, dars o'tish metodlariga bevosita bog'liq. Grammatika o'rganayotganda qoidalarga katta e'tibor qaratish lozim va berilgan vazifalarni hammasini bajarib borish shart. Gaplar tuzilishini, joylashishini o'rganib chiqish lozim. Grammatikani yaxshi bilgan o'rganuvchida shu tilda tog'ri gapiri tez va tog'ri, xatolarsiz bo'ladi. Albatta har bir bo'lim tugaganidan so'ng takrorlash "revision" bo'lishi yoki testlar orqali o'tilgan mavzular mustahkamlanishi maqsadga muvofiqdir. Yana ingliz tilini o'rganishda muhit juda katta ro'l o'ynashini guvohi bo'lganmiz. Ya'ni oldingizda til o'rganuvchi safdoshlaringiz qancha ko'p bo'lsa, til o'rganish tez va oson bo'ladi. Ular bilan doimiy chet tilida muloqotda bo'lish kerak. Til o'rganishga bel bog'lagan inson o'ziga inglizcha muhit yaratishi lozim. Ya'ni masalan dunyo yangiliklarini o'qimoqchimi inglizcha tahrirdan o'qisin. Til o'rganishdan oldin o'z oldiga qator maqsadlarni qo'yish va nima uchun til o'rganayotganini anglab yetish lozim. Insonda til o'rganishdan aniq maqsad bo'lishi kerak. Agar til o'rganilayotganida inson o'zida o'zgarish yoki o'sish sezmasa foydalanayotgan materiallari, metodlari samarasiz yoki o'rganuvchi ulardan noto'g'ri foydalanyapti. Chet tilini o'rganishda mustaqil shug'ullanish "self study" ham juda samarali. O'zingiz kunlik rejangizni tuzishingiz muhim. Bu orqali siz o'zingizni nazorat qilib borasiz. O'rganuvchi so'zlarning talaffuziga alohida e'tibor qaratishi lozim. Buning uchun kinolar ko'rish va "native" so'zlovchilarning talaffuzini diqqat bilan eshitish lozim. Mamlakatimizda Ingliz tili darajasini aniqlab beradigan imtihonlar mavjud. Bulardan juda ko'p misollar keltirish mumkin. Bulardan biri The Common European Framework of Reference for languages (CEFR) hisoblanadi. Bu til qobiliyatini tavsiflovchi xalqaro standartdir. U til qobiliyatini 6 ballik shkalada tavsiflaydi ya'ni A1 dan C2 gacha. Yana bir test tizimi xalqaro ingliz tili test tizimidir (IELTS). Albatta bu test tizimi orqali ingliz tili darajangizni bilib olasiz va bu qaysi darajada ekanligingizni bilishga, bundanda yuqori darajaga erishishingizga yordam beradi. Test imtihonlariga bir necha oylat mobaynida mukammal tayyorlanish lozim. Bir marotaba testga kirgan insonda anchagina test haqida tushuncha hosil bo'ladi. Darajasini bilish orqali o'z ustida yanada kuchli ishlash boshlanadi. Yuqori natija egalarida o'ziga ishonch yanada ortib, darajasini bundanda baland qilishga intilish uyg'onadi. Bularga qunt bilan o'rganish orqali erishiladi.

Xulosa o'rnida, Chet tillarini mukammal o'rganishga to'g'ri materiallardan foydalanish, malakali murabbiylar bilan ishlash, kundalik tarzida doimiy shug'ullanish orqali erishiladi. Chet tillarini o'rganish juda keng imkoniyatlar eshigini ochibgina qolmay, malakali til mutaxassislariga bo'lgan talab ortishiga, dunyo bilan hamnafas bo'lib yashashga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

<https://www.ielts.org/>

<https://www.cambridgeenglish.org/>

https://t.me/RealEnglish_us